

## MIGEL DE SERVANTOSNING “DON KIXOT” ASARI HAMDA UNDAGI BADIY OBRAZLARINING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

*4-kurs talabasi S.R.Rustamova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ulug' adib Migel de SAVEDRA Servantesning ispan adabiyotiga qo'shgan buyuk xizmatlari, yozuvchining "Don Kixot" asaridagi qahramonlarning g'ayrioddiy sarguzashtlari haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Migel de SAVEDRA Servante, Don Kixot, ritsar, Sancho Panza, sarguzasht, komik asar.

**Abstract:** This article discusses the great merits of the great writer Miguel de SAVEDRA Cervantes to Spanish literature, the unusual adventures of the characters in the writer's work "Don Quixote".

**Key words :** Miguel de SAVEDRA Cervante, Don Quixote, knight, Sancho Panza, adventure, comic work.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются большие заслуги великого писателя Мигеля де Саведры Сервантеса перед испанской литературой, необычные приключения героев произведения писателя «Дон Кихот».

**Ключевые слова:** Мигель де Саведра Серванте, Дон Кихот, рыцарь, Санчо Панса, приключение, комикс.

Buyuk ispan yozuvchisi Servantes 1547-yilda Alkala-de-Enares deb nomlanuvchi manzilda omadi chopmagan dorishunos oilasida dunyo kelgan. Otasining kasbi qishloqqa qishloq, shaharma shahar ko'chib yurishni talab qilganligi sababli, yosh adib bolaligidan doimiy ravishda maktabga qatnay olmaydi, shuningdek, shu kabi muammolar tufayli uning bilim olishi ham anchagina qiyin kechadi. Yigirma yoshlarida yozuvchi Rim Papasining jangchilar bo'linmasi safiga qo'shiladi, xizmat qilish davomida Servantos tutqunlik azobini ham boshidan kechiradi. Bir muddat Portugaliyada yashab, so'ng yurtiga qaytgan Servantos 1982-yillarda yana o'zini yozuvchilik sohasida sinab ko'ra boshlaydi. Vatanparvarlik mavzusida yaratilgan "Numansiya" tragediyasi hamda maishiy mavzularga bag'ishlangan kichik pyesalari shu davr mahsullaridir. Adib o'zidan o'n sakkiz yosh kichik bo'lgan Katalina bilan oila quradi. Davlat lavozimlaridan umidvor bo'lib yurgan Servantes Angliya yurtiga bosib borish bo'yicha qo'shinga komissar etib tayinlanadi, qattiqqo'llik va shavqatsizlikni talab qiluvchi bu ish jarayonida qonunlarga qattiq amal qilishga harakat qilib, ibodatxonaning oziq-ovqat zahirasini o'zlashtirib olib, dindor vakillarning noroziligiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, Amerikadagi Ispaniyaga tegishli yerlarda ma'muriy lavozimlarga erishish umidida bo'ladiyu, lekin buning uddasidan chiqa olmaydi. Ba'zi sabablarga ko'ra, Servantoga uch marotaba qamoq jazo tayinlanadi. Bundan keyin

adib umrini badiiy ijodga bag'ishlaydi. Yozuvchining hayotiga oid ba'zi qiziqarli ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, Toledo o'lkasida adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan ikkita muzey bor. Biri Eskivias shahrida joylashgan, Eskiviasda Servantes istiqomat qilgan shahardir. Ikkinchi shahar esa aynan Servantes tufayli dunyoga mashhur va u yerdagi muzey shahar qilingan, shahar nomi - Toboso. Bu nomni Don Kixotning sevgilisi Dulsineya yashaydigan joy sifatida hammaga ma'lum. Don Kixotning sevgilisi Dulsineya ham o'z prototipiga ega. Ana de Moralesni hayotdagi Dulsineya deyishadi. Izohlaymiz. Dulsineya ismini qismlarga bo'lib ko'ramiz: "dulce" va "Ana". Ma'nosi "shirin Ana". Gap shundaki, Servantes Anaga ismli ayolga xatlar yozib, uni "shirinim" deb erkalagan kabi ba'zi ma'lumotlar mavjud. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, G'arbiy Yevropada Aleksandr ismi juda ham keng tarqalgan va obro'li ism edi. Ammo Servantesning mashhur asari bunga chek qo'ydi. Uning oddiy, kambag'al, biroz telbaroq qahramoni Sancho Pansani timsolida, Aleksandr ismi Ispaniyada Sancho ko'rinishida bolalarga qo'yilgan. Asar chop etilgach, Aleksandr ismining mavqeyi keskin pasaygan.

1605-yilda adibga mashhurlik olib kelgan, uning nomini mangu qilgan doxil qilgan asari – "Don Kixot" asarining birinchi qismi nashrdan chiqdi. Avvaliga ko'p yozuvchilar bu romanga "ijobiy bahoga arzimaydigan roman "yoki " hech kim o'qimaydigan asar " kabi fikrlarni bildirishadi. Ammo asar chop etilishi bilanoq, kitobsevarlar e'tiboriga sazovor bo'ldi. Nafaqat adabiy davra muhitlarida, balki maishiy hayotda ham xayolparast va tajang, eng asosiysi poki qalbli bosh qahramon Don Kixot va uning o'ziga o'xshagan Sancho Pansa ismli yaroqbardori haqida odamlar qizg'in muzokaralar olib borar hamda odamlar o'rtasida " donkixotchilik " degan yangi tushuncha yuzaga kelgan edi. Asar asta-sekin boshqa yurtlarga ham kirib kela boshladi va turli tillarga tarjima qilinadi. La-Manchda yashovchi qashshoq zodagon, keksa Alonso Kexana ritsarlar haqida turli xil kitoblarni o'qiydi, natijada unda jahongashta ritsar bo'lish istagi uyg'onadi va o'ziga Don Kixot nomini oladi. U soddadil va keng fe'lli inson bo'lib, ritsarlar faqat kuchsiz va nochorlarga yordam berish uchun yashaganiga qattiq ishonadi va adabiy qahramonlarni takrorlashni orzu qiladi, ammo juda ko'plab kulguli vaziyatlarga sabab bo'ladi. Yo'l bo'yidagi qovoqxonaning egasi, Don Kixotning yelkasiga qoqib qo'yish orqali unga ritsarlik rutbasini beradi. Safarga ketishdan oldin Don Kixot dehqon Sancho Pansani xizmatkor qilib yollaydi va uni o'z qurolbardori etib tayinlaydi. Don Kixot kelajakda erishadigan barcha yutuqlarini qalbidagi yagona ayol – Dulsineyaga bag'ishlaydi. Ana shunday qilib asarning bosh qahramoni Don Kixot o'zining safarini boshlaydi, safari davomida Don Kixot tuli xil ko'ngilsiz va kulguli vaziyatlarning qurboni bo'lsada, u mashhurlikka erishadi, keyinchalik hamyurtlari uni aqldan ozgan degan fikrga keladi. "Ko'zgular ritsari"ga qarshi kurashda yutqazgandan keyin uyga qaytgan Don Kixot shunchaki odamlarga kulgu bo'lganini hamda bu oxirgi sarguzashti ekanligini anglaydi va qayg'u cho'mib

kasal bo'lib qoladi. Asar oxirida Don Kixot o'z mol-mulkiga vasiyatnoma yozadi, hamma narsani jiyaniga qoldirmoqchi bo'ladi, ammo u vasiyatnomaga hech qachon ritsarlar haqidagi bema'ni romanlarni o'qigan odamga turmushga chiqmaslik shartini qo'yadi. Asardan keltirilgan iboralarning ba'zilariga e'tibor qaratsak, " Kim o'zini past tutsa, Alloh uni yuksaltiradi ", " Ishsiz imon o'lik bo'lgani kabi, faqat xohishdan iborat bo'lgan minnatdorchilik o'lik narsadir "yoki " Siz dunyo ishlarida tajribaga ega bo'lmaganingiz uchun, biroz qiyin bo'lgan barcha narsalar sizga imkonsiz bo'lib tuyuladi" jumhuri adibning naqadar yuksak aql egasi ekanligidan dalolat beradi [1].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, asar bir qarashda shunchaki komideya janrida yozilgan hamda bosh qahramonning boshdan kechirgan shunchaki kulguli kechinmalari sifatida bo'lib ko'rinsa ham, aslida yozuvchi kulgu ortida ba'zi haqiqatlarni, o'sha davr muhitini yoritib bermoqda. Albatta, shunday kitoblar borki ularni har o'qiganda kitobsevar o'ziga yana bir payqamagan yangiligini, xulosasini kashf etadi. Mana shunday asarlardan biri Migel de Servantosning "Don Kixot" asari desak adashmagan bo'lamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOT**

1. Servantes Saaverda Migel de. Don Kixot. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1990.

#### **FOYDALANILGAN SAYT**

1. <https://www.recursosdeautoayuda.com/uz/don-kixot-iboralari>